

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
RESPUBLIKA O‘RTA TIBBIYOT VA FARMASEVTIKA XODIMLARI
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI**

«KELISHILDI»

Respublika o‘rta tibbiyot va
farmasevtika xodimlari
malakasini oshirish va ularni
ixtisoslashtirish markazi
hududiy xay‘at raisi
M.T. Xakimova _____
03 2025 y.



« TASDIQLAYMAN»

Respublika o‘rta tibbiyot va
farmasevtika xodimlari malakasini
oshirish va ularni ixtisoslashtirish
markazi direktori
L.X. Musadjanova _____
« 4 » 03 2025y.



Bilimlar sohasi: Sog‘liqni saqlash

SHOSHILINCH TIBBIY YORDAM KO‘RSATISH

(sikli bo‘yicha malaka oshirish guruhlariga uchun)

O‘QUV DASTURI

(144-kredit)

Toshkent – 2025 yil

TUZUVChILAR:

R.O'Musayev

Respublika o'рта tibbiyot va
farmasevtika xodimlari
malakasini oshirish va
ularni ixtisoslashtirish markazi
o'qituvchisi

N.M.Kurbanova

Respublika o'рта tibbiyot va
farmasevtika xodimlari
malakasini oshirish va
ularni ixtisoslashtirish markazi
o'qituvchisi

TAQRIZChILAR:

Z.Z.Imamova

RO'TFXMO va IM o'quv ishlari
bo'yicha direktor o'rinbosari

I.N.Aslonov

Respublika tez tibbiy yordam markazi
Toshkent shahar filiali direktori, dotsent

O'quv dasturi Respublika o'рта tibbiyot va farmasevtika xodimlari
malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazining Pedagogik kengashida
ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi.

«4»032025y.

bayonnoma № 2/1

Pedagogik kengash raisi



L.X.Musadjanova

O'quv dasturi direktorlar kengashida ko'rib chiqildi, muhokama
qilindi, tasdiqlashga tavsiya etildi.

«5»032025y.

bayonnoma № 2

1. Kirish.

O‘zbekiston Respublikasida o‘rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish, tibbiyot muassasalarida hamshiralik ishini xalqaro andozalarga mos va talabga javob beradigan tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizim yaratilgan.

Mazkur o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi “Tibbiyot va farmatsevtika ta’limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ - 4310-sonli qaror, O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabr O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 2020 yil 7 apreldagi “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 4666-sonli qaror, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli “Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo‘yicha me‘yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi” buyrug‘i, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 16 oktabr “Tez tibbiy yordam xizmatini takomillashtirish to‘g‘risidagi 3973-sonli” PQ , 2022 yil 16 iyun “ Aholiga tez tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish“ 283-sonli PQ , O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2024 yil 28 oktabr 333-sonli,“O‘rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo‘yiladigan Davlat talablari” ijrosini ta‘minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

Sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturlari doirasida aholiga tez va shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatishni yanadi yaxshilashga va yaqinlashtirishga, alohida e‘tibor qaratilmoqda.

O‘quv dastur modul tizimi asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, o‘quv fanning mazmuni, uni o‘zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan. Dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallashi alohida e‘tiborga olingan.

O‘quv dasturi “Shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish” yo‘nalishining namunaviy o‘quv rejasi asosida tayyorlangan bo‘lib, o‘rta tibbiyot xodimlari (shoshilinch tez tibbiy yordam ko‘rsatish ilmiy-amaliy markazlari va davolash profilaktika muassasalarining shoshilinch tez tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘limlari hamshiralari, feldsherlar)ni 144 kredit malaka oshirishlari uchun mo‘ljallangan.

O‘quv dasturda fanlar modullarga ajratilgan bo‘lib, kasbiy rivojlanish moduli fanlar hamda, mutaxassislik fanlar bo‘yicha ta‘lim olayotganlarning har tomonlama kasbiy, ma‘naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog‘liqni saqlash tizimidagi islohatlar, tibbiyot sohasining ilm – fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to‘g‘risida ma‘lumotlar kiritilib, tibbiy talimda uzluksizligi va uzviylikini, fanlar va bo‘limlarni ketma-ketligini ta‘minlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o‘quv materiallarini qamrab olgan.

1.1. Maqsad:

O‘qish natijasida “Shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish” bo‘yicha Respublika shoshilinch tez tibbiy yordam ko‘rsatish ilmiy-amaliy markazlarida va davolash profilaktika muassasalarining shoshilinch tez tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘limlarida faoliyat yurituvchi o‘rta tibbiyot xodimlarining mavjud kompetensiyalarni takomillashtirish va

kasbiy faoliyat uchun zarur yangi bilim va ko'nikmalarni egallash va kasbiy darajasini oshirish. O'rta tibbiyot xodimlarni har tomonlama yetuk, mutaxassisliklari bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlariga erishish, shoshilinch tez tibbiy yordamning tezkorligini, texnologiyasini va samaradorligini tubdan kuchaytirish, aholiga o'z vaqtida malakali shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha davolash, ilmiy-metodik va ta'lim ishlarining butun kompleksini eng yuqori darajada tashkil etish va zamonaviy, innovatsion, tibbiy ma'lumotlar bilan ularning malakaviy xarakteristikasiga mos holda bilimlarini oshirish. shu bilan bir qatorda normativ-huquqiy hujjatlar bilan ishlash, profilaktik tadbirlar majmuasini amalga oshirish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni chuqurlashtirish va yangilash.

1.2. Vazifalar:

- Umumiy malaka oshirish o'quv jarayonini modulli tibbiy ta'lim tamoyili bo'yicha, zamonaviy, innovatsion, isbotlangan tibbiyotga asoslangan xalqaro ilmiy-amaliy ma'lumotlarni davlat talablariga mos holda tuzilgan o'quv dasturi bo'yicha tizimli tashkillashtirish va davolash profilaktika muassasalarida ko'rsatiladigan profilaktik, tashhislash va davolash uchun kerakli amaliy ko'nikmalarni mustaqil qo'llashga tayyorgarlikni shakllantirish;
- etika va deontologiyaning zamonaviy jihatlari bilan tanishtirish;
- aholi o'rtasida to'g'ri, ratsional ovqatlanish, zararli odatlarga qarshi kurashish, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash, o'sib kelayotgan avlodni sog'lomlashtirish tadbirlarini yangilash;
- aholi o'rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, aholi orasida ko'p tarqalgan kasalliklarni oldini olish;
- zamonaviy klinik protokollar va standartlar bilan tanishtirib, ular bilim, malakaga asosida ishlash ko'nikmalarini yangilash va mukammallashtirish;
- tibbiyot sohasidagi yangiliklar, shoshilinch va favqulotda xolatlarda tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil etish;
- shoshilinch tez tibbiy yordamga muxtoj bemorlarni zamonaviy tekshirish usullarga tayyorlash, zamonaviy yangi tibbiy texnologiyalar to'g'risida ma'lumotlar berish;
- favqulotda vaziyatlar, kechiktirib bo'lmaydigan holatlarini tahlil qila olish va kechiktirib bo'lmaydigan yordamni ko'rsatish qobiliyatini takomillashtirish.
- og'ir ahvoldagi bemor hayotiga xavf tug'diruvchi holatlarni zudlik bilan aniqlashga yo'nalgan holda yordam ko'rsatishga yondoshish;
- inson xayotiga xavf soluvchi xolatlarda bemorlarga tezkor tibbiy yordam chora tadbirlari ko'rsatish;
- reanimatsion bemorlarni parvarishlash, salomatligini qayta tiklash va yanada mustahkamlash;
- ko'p uchraydigan asosiy patologik holatlarda va ularga olib keluvchi havf omillarini erta aniqlash mahoratini oshirish.

1.3. Ta'lim oluvchilar toifasi (kontingenti):

O'quv dastur bo'yicha Respublika shoshilinch tez tibbiy yordam ko'rsatish ilmiy- amaliy markazlari, davolash profilaktika muassasalari va shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish bo'limlarida faoliyat yuritayotgan o'rta tibbiyot xodimlarining malakaviy tavsifnomasi va

lavozim yo'riqnomalariga muvofiq, ya'ni mutaxassisligini tasdiklovchi xujjati bo'lgan hamshiralalar uchun mo'ljallangan.

1.4. O'quv dasturni o'zlashtira olish uchun zarur bo'lgan tinglovchi kompetensiyasi:]

- tibbiy etika va deontologiyani amalda qo'llay oladigan, insoniylik tamoyillariga, kasbiy standartlarga va tibbiyot ilmining zamonaviy talablariga javob beradigan, notiqlik san'atining asoslarini tushungan yetuk mutaxassis bo'lishi;
- hamshiraning huquqiy meyorlarini, bemor huquqlari, roziligi, rad etishi, bolalarning yoshiga nisbatan xususiyatlarini bilishi, asosiy hayotiy ko'rsatkichlarni o'rganish;
- tibbiyot psixologiyasi va shaxslararo muloqot ko'nikmalariga ega bo'lishi va uni amalga oshirish;
- mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borish, yangi axboratlarni o'rganish va o'z faoliyatida qo'llay bilish;
- shoshilinch tibbiy yordamni tashkil etishdagi direktiv hujjatlarni, bilishi va me'yoriy hujjatlarni yurita olishi;
- favqulotda holatlarda jabrlanganni birlamchi qo'riqdan o'tkazish, organizmning hayotiy muhim ko'rsatkichlarni aniqlash va monitoringini olib borish;
- o'z kasbiy salohiyati doirasida sanitar oqartuv, sanitar-gigiyenik, profilaktik, reabilitatsion, diagnostik va reanimatsion tadbirlarni, vrach ko'rsatmalarini amalga oshirish;
- bemorga o'z vaqtida malakali shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish;
- shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish ilmiy-amaliy markazlari bo'limlaridagi bemorlarni parvarish qilish;
- kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qila olis mutaxassisligi bo'yicha chuqur va yangilangan to'liq nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lgan, uzluksiz o'z malakasini oshirishga tayyor bo'lgan, o'zgaruvchan sharoitlarga tez moslasha oladigan bo'lishi kerakligi;
- xolatlarda, jarohatlarda, zaxarlanishlarda o'pka-yurak reanimatsiyasini o'tkazish, shifokorgacha bo'lgan tez tibbiy yordam ko'rsatish;
- bemorlar xolatini baholash, asosiy simptom va sindromlarni ajratish, og'ir va terminal
- zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

1.5. Dasturning dolzarbligi: O'quv dasturining dolzarbligi amaliy tibbiy yordamning real ehtiyojlaridan kelib chiqib, amaldagi standart va bayonnomalar, dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarida kasalliklar dignostikasi, zamonaviy davolash va profilaktika choralarini qo'llash, muammolarga yo'naltirilgan yondoshuv asosida shoshilinch yordamning zamonaviy ehtiyojlaridan kelib chiqib, o'quv materiallari va jarayonlar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimining va mutaxassislikning o'ziga xos kasbiy ehtiyojlariga qaratilgan, shuningdek tibbiyot huquqi bo'yicha amaldagi qonunchiligi, hamda zamonaviy ilm-fan yutiqlariga muvofiqligi, tibbiyot fani va amaliyotidagi mavjud vaziyat o'zgarishini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

1.6. Dastur hajmi: 144 kredit (kuniga 6 kredit, haftada 36 kredit).

1.7. O'qish shakli:

- kunduzgi - o'qish ishdan ajralgan holda
- on/offline, masofaviy/a'nanaviy o'qish ishdan ajralgan/ ajralmagan holda

1.8. Mashg'ulotlarni o'tish tartibi:

Mashg'ulotlar "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyrug'i va markazning ichki tartib-qoidalari asosida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi.

Mashg'ulotlar 9⁰⁰ da boshlanib, 13⁴⁰ da tamom bo'ladi. Tushlik - 30 daqiqa.

Kuniga 6 kreditdan, haftasiga 36 kredit, 4 haftada 144 kredit.

1.9. O'qish tugagandan so'ng beriladigan xujjat: o'quv kursni to'liq o'zlashtirgan va yakuniy attestatsiyani topshirgan tinglovchilarga "Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish" bo'yicha umumiy malaka oshirganligi haqida Davlat talablari namunasidagi sertifikat taqdim etiladi.

2. REJALASHTIRILAYOTGAN TA'LIM NATIJALARI

2.1. Rejalashtirilayotgan ta'lim natijalaridan so'ng takomillashtirilishi (yangilanishi) lozim bo'lgan kasbiy kompetensiyalar:

- mutaxassisning fikrlash, tahlil va sintez qilish, jamoa bilan ishlash va uni boshqarish, intizomlilik, boshlagan ishini mantiqiy yakuniga yetkazishga tayyorligini rivojlantiradi;
- o'z-o'zini baholash, tanqidiy tahlil qilish va to'g'ri qarorlarni qabul qilish, aholi sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash doirasida, aholi orasida tibbiy madaniyat, sog'lom turmush tarzi, kasallik rivojlanishining oldini olish borasida profilaktik sanitariya targ'ibot tadbirlarni olib borish, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarni keng tadbiq etish qobiliyati yangilanadi;
- intizomiy, ma'muriy, fuqarolik, jinoiy javobgarlikni amalga oshirayotganda tibbiy xatolarning oldini olish bo'yicha o'z faoliyati natijalarini tahlil qilish tayyorligi va amalga oshiradi;
- bemorlarni tashxislashda foydalaniladigan tibbiy va texnik jihozlar bilan ishlash, shaxsiy kompyuter texnologiyalari, turli manbalardan ma'lumot olish, kompyuter tarmoqlarida ma'lumotlar bilan ishlash imkoniyati kengayadi;
- kasbiy muammolarni hal qilishda zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan foydalanadi;
- hamshiralik jarayoni orqali tibbiyot hamshirasi amaliyot standartlarini, hamshiraning kasallik tarixi va hamshiralik tashxisi, shuningdek hamshiralik parvarishini amalga oshirish ko'nikmasini rivojlantiradi;
- tibbiy-ijtimoiy va hamkorlik faoliyatini olib borish, kelishmovchiliklarni hal etish, hamkasabalar, patsiyentlar va ularning yaqinlari bilan to'g'ri muloqot qilish qobiliyati mukammalla'adi;
- favqulotda xolatlarda samarali hamshiralik ishini olib boradi;
- bemorlarni xolatiga qarab yordam ko'rsatadi;
- shoshilinch holatlarni o'z vaqtida tashhishlash, birlamchi tezkor yordamni amalga oshirish, ko'nikmalarni mukamallashadi;
- respirator kasalliklarda, yurak-qon tomir tizimi kasalliklarida, o'tkir miya qon aylanishi buzilishlarda shoshilinch yordam ko'rsatish qobiliyati mukamallashadi;
- akusherlik-ginekologiyadagi o'tkir holatlarda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish qobiliyati mukamallashadi;

- urologiyadagi o‘tkir holatlarda, “O‘tkir qorin” sindromida shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish qobiliyati mukamallashadi;
- jarohatlarda kechiktirib bo‘lmaydigan tibbiy yordam ko‘rsatish qobiliyati mukamallashadi;
- bolalarda shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish qobiliyati mukamallashadi;
- o‘tkir zaxarlanishlarda shoshilinch tibbiy yordam kursatish ko‘nikmalari yangilanadi;
- bemorlar kasalliklarini aniqlashda qo‘llaniladigan zamonaviy tibbiy tekshirish usullarini o‘zlashtiradi;
- shifokorgacha shoshilinch holatlarni o‘z vaqtida tashhislash, birlamchi tezkor yordamni amalga oshirish, hamda o‘rnatilgan tartibda hujjatlashtirish ko‘nikmalarini mustahkamlanadi;
- zamonaviy tibbiy jihozlarni ishlatish, texnik ishlov berish vazifalari takomillashadi;
- intizomiy, ma‘muriy, fuqarolik, axloqiy javobgarlikni amalga oshirayotganda tibbiy xatolarning oldini olish bo‘yicha o‘z faoliyati natijalarini tahlil qilish va amalga oshirish qobiliyatini mukammallashadi;
- hamshiralik ishini amalga oshirish va tashkil etishning ilg‘or shakllari va usullarini ishlab chiqish, ommalashtirish, tajriba almashish hamda boshqa kasbiy faoliyat turlariga moslashtirish qobiliyatiga ega bo‘ladi.

3.DASTUR MAZMUNI

3.1“Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish” malaka oshirish kursi o‘quv rejasi.

№	Modul va mavzular nomi	Kredit	Auditoriya mashg‘ulotlari		Seminar	Attestatsiya
			Nazariy mashg‘ulot	Amaliy mashg‘ulot		
1.0	Kasbiy rivojlantirish moduli	32	16	16		
1.1	Modul. O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati	4	4	-		
1.2	Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar	6	2	4		
1.3	Modul: Infeksion nazorat	6	4	2		
1.4	Modul: Sterilizasiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi	6	2	4		
1.5	Modul: Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik	10	4	6		

2.0	Mutaxassislik fanlar moduli	104	44	60		
2.1	Modul: Shoshilinch tibbiy yordam kursi va asoslari.	8	4	4		
2.2	Modul: Favqulodda vaziyatlarda aholiga tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil etish.	6	2	4		
2.3	Modul: Reanimatologiyaning umumiy masalalari. Shifoxonagacha bo'lgan bosqichda reanimatsiya choralari.	16	6	10		
2.4	Modul: Shoshilinch va kechiktirib bo'lmaydigan tibbiy yordamni talab qiladigan sindromlar.	30	14	16		
2.5	Modul: Jarrohlik kasalliklarida kechiktirib bo'lmaydigan holatlar.	12	6	6		
2.6	Modul: Homiladorlik va tug'ishda, ginekologik kasalliklarda kechiktirib bo'lmaydigan holatlar.	6	2	4		
2.7	Modul: Jarohatlarda kechiktirib bo'lmaydigan holatlar.	10	4	6		
2.8	Modul: O'tkir zaharlanishda kechiktirib bo'lmaydigan holatlar.	10	4	6		
2.9	Modul: Bolalarda kechiktirib bo'lmaydigan holatlar.	6	2	4		
3.0	Tanlov fanlar moduli.	4			4	
	Attestatsiya	4				4
	Jami:	144	60	76	4	4

“Shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish” malaka oshirish kursi o'quv modullarining mazmuni

1.1. Modul: O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining yaqin va istiqbolga mo'ljallangan Harakatlar dasturi muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilishidagi nutqida belgilab berilgan Sog'liqni saqlash tizimidagi dasturlarni samarali va to'liq amalga oshirishdagi asosiy vazifalar. Yangi O'zbekiston tibbiyoti-yangicha yondashuvlar asosida transformatsiya qilinayotgan tizim. Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida tibbiyotga doir ustuvor yo'nalishlarning mazmun-mohiyati.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ayollar orasida onkologik kasalliklarni nazorat qilishga doir davlat dasturi to'g'risi"dagi hamda "Tibbiy va sog'lomlashtirish

turizmini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarining ahamiyati.Sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirishdagi ustuvor vazifalar. "Aholi salomatligi-2030" milliy strategiyasining ustuvor yo'nalishlari,vazifalari va asosiy indikatorlari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020-yil 12-noyabrdagi "Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4890-sonli shuningdek 2024 yil 5-sentabrdagi "Davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy etishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi 311-sonli Qarorlarining mazmun-mohiyati.

Davlat tibbiy sug'urtasi-sifatli tibbiy xizmat kafolati.Davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy qilish bilan bog'liq islohotlar. Davlat tibbiy sug'urtasining huquqiy asoslari, mexanizmlari va joriy etish bosqichlari haqida. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tibbiy sug'urtasiga oid norma haqida.

1.2.Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar .

Tibbiyot sohasida raqamli texnologiyalaridan foydalanishdagi nazariy va amaliy bilimlarni egallash, Bemor ma'lumotlarini boshqarish, tibbiy statistik ma'lumotlarni to'g'ri tahlil qilish, tahlil qilingan natijalardan kelib chiqqan holda kasallikning oldini olish yoki davolash yo'llarini aniqlash, axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida asosiy amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish.

Internet tarmog'ida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari xususiyatlari, ma'lumotlar bazasini tashkil etish, mobil tibbiyot ilovalari va axborot xavfsizligi asoslarini, AI asosida diagnostika, chatbotlar va virtual yordamchilardan foydalanishni bilishi kerak. "Tibbiyotda raqamli texnologiyalar" o'quv modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

- tibbiyotda raqamli texnologiyalar tushunchalari va tasavvurlarining umumiyligi;
- axborot tushunchalari va turlari. Tibbiyot masalarini yechishda informatikaning o'rni;
- hozirgi zamonda informatikaning o'rni va roli, ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish.

1.3.Modul: Infekcion nazorat.

Infekcion nazorat, maqsad va vazifalari. Shifoxona ichi infeksiyasi, kelib chiqish sabablari, profilaktikasi. Sanitariya epidemiologiya sohasida qo'llaniladigan me'yoriy hujjatlar. Davolash profilaktika muassasalarida shifoxona ichi infeksiyasini oldini olish chora tadbirlarini o'tkazishda o'rta tibbiy hodim vazifalari. Karantin va o'ta havfli infeksiyalar haqida tushuncha. Karantin va o'ta havfli infeksiyalar profilaktikasini amalga oshirish chora tadbirlari, himoyalani tamoyillari. OIV/OITS haqida umumiy ma'lumot. OIV/OITS tarqalishini oldini olish choralari. Avariya holatlar yuzaga kelganda tibbiy hodim taktikasi. Himoya kiyimlari va ulardan foydalanish tartibi.

1.4. Modul: Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika havfsizligi.

Sterilizatsiya bo'limidagi yuritiladigan me'yoriy hujjatlar.Sterilizatsiyani olib borish xonalaridagi aseptika va antiseptika tadbirlari, ularning talab darajasida bajarilish tartib va qoidalari. Antiseptikaning mexanik, fizikaviy, kimyoviy, biologik turlari. Antiseptik moddalarning guruhlari. Markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan sterilizatsiya bo'limlari turlari. Zamonaviy sterilizatsiya apparatlari va texnika havfsizligi masalalari. Sterilizatsiyaning sifatini ta'minlovchi tadbirlar, uni tekshirish uchun zarur

indikatorlar. Zararsizlantirish bo'limlarida zamonaviy zararsizlantirish apparatlari, ular bilan ishlash. Zararsizlantirish usullari. Zararsizlantirish xonasi texnika xavfsizligi qoidalari. Dezinfeksiya vositalarini tayyorlashda xavfsizlik choralari va dezinfeksiya vositalari bilan zaharlanishda birinchi yordam ko'rsatish. Avtoklavlarni turlari, tuzilishi, ishlash tartibi. Avtoklav ko'rsatkichlarini ish jarayonida ahamiyati. Mehnatni muhofaza qilish ishlarini tashkil etish. Zamonaviy sterilizatsiya apparatlari va texnika xavfsizligi masalalari. Sterilizatsiyaning sifatini ta'minlovchi tadbirlar, uni tekshirish uchun zarur indikatorlar.

1.5. Modul: Sog'lom turmush asoslari, to'g'ri ovqatlanish mezonlari va jismoniy faollik.

Sog'lom turmush tarzini tashkil etish asoslari. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta'siri, to'g'ri ovqatlanish prinsiplari, kun tartibini to'g'ri tashkil etish, jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikdagi ahamiyati, zararli odatlarning organizmga ta'siri, tibbiy ko'riklarni tashkil etish va aholini jalb etish.

2.1. Modul: Shoshilinch tibbiy yordam kursi va asoslari.

Tez tibbiy yordamning asoslari. Tez yordam xizmati vazifalari. O'zbekiston fuqarolariga bepul tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha davlat kafolatlarini ta'minlash. Tibbiy yordamning turlari, ko'rsatish sharoitlari va shakllari bo'yicha tasnifi. Tibbiy yordam ko'rsatish tartiblari va tibbiy yordam standartlari. Standart operatsion protseduralar (SOPlar) – tibbiy yordam sifatini boshqarish tizimining majburiy qismi. SOPlar faoliyatiga qo'yiladigan talablar. Normativ-huquqiy baza. Tez yordam ko'rsatish tartibi. Kechiktirib bo'lmaydigan holat" tushunchalari. Shoshilinch holatlarning tasnifi. Shifoxonagacha bo'lgan bosqichda shoshilinch va kechiktirib bo'lmaydigan tibbiy ko'rsatadigan tibbiyot muassasasi. Shifoxonagacha bo'lgan bosqichda tibbiy yordamning asosiy tamoyillari va ko'lamlari. Tez tibbiy yordam mutaxassislariga qo'yiladigan malakaliy talablar. Tez yordam xodimlari faoliyatida etika va deontologiya jihatlari. Kechiktirib bo'lmaydigan va shoshilinch yordam ko'rsatishda huquqiy va axloqiy tamoyillar. Tez tibbiy yordam xodimlarining ijtimoiy himoyasi. Tez tibbiy yordam xodimlarini majburiy davlat sug'urtasi. Majburiy tibbiy sug'urta ekspertlarining tibbiy yordam sifati va xavfsizligini, uning qulayligi va yetarililigini baholashdagi roli. Majburiy tibbiy sug'urta ishtirokchilarining o'zaro hamkorligi. Tibbiyot xodimlarining hayoti va sog'lig'iga tajovuz uchun javobgarlik. Bemorlarning sog'lig'i holati va kutilayotgan tibbiy aralashuvlar haqida ma'lumot olish huquqlarini ta'minlash, shuningdek, shifokor sirini saqlash. Ноқобил (huquqiy layoqatsiz) bemorlarning huquqlarini ta'minlash tartibi. Bemorlar tibbiy yordamdan voz kechganda tez tibbiy yordam xodimlarining harakatlari. Tez tibbiy yordam xodimlari faoliyatida psixologik jihatlari. Tez tibbiy yordam xodimlarining bemorlar, ularning qarindoshlari va uchinchi shaxslar bilan muloqotidagi psixologik muammolar. Bemorlarning psixologik turlari va turli tipdagi bemorlar bilan muloqot qilishning o'ziga xos xususiyatlari. Qariyalar bilan va palliativ yordamga muhtoj bemorlar bilan muloqot qilishning o'ziga xos xususiyatlari. Nizo va psixotravmatik holatlarda psixologik himoya usullari. Kechiktirib bo'lmaydigan yordam ko'rsatishning asosiy bosqichlari va bunda tibbiyot xodimining roli.

2.2. Modul: Favqulodda vaziyatlarda aholiga tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil etish.

Favqulodda vaziyatlar. Tushunchasi, tasnifi, sabablari. Jabrlanganlarni tibbiy saralash. Evakuatsiyani tashkil etish va jabrlanganlarni tibbiy tashishning xususiyatlari. Favqulotda vaziyatlar haqida tushuncha. Favqulotda vaziyatlar tasnifi, uning turlari, kelib chiqish sabablari, manbalari. Insonlar orasida favqulotda vaziyatlar va shoshilinch xolatlarida o'z-o'ziga va bir-biriga yordam berishni targ'ib qilish. Favqulotda xolatlar turlari. Ularda umumiy extiyotkorlik choralari ko'rish. Ommaviy talofat o'chog'ida birinchi yordam kursatish. Tibbiy saralash (Triaj usuli) va evakuatsiya qilish. Tibbiy saralash bosqichlari. Tibbiy evakuatsiya bosqichlari. Evakuatsiyani tashkil etish va jabrlanganlarni tibbiy tashishning xususiyatlari. Evakuatsiya bosqichlarida tibbiy yordam turlari. Favqulotda vaziyatlarda fuqaro muhofazasi bo'yicha o'tkaziladigan chora-tadbirlar.

2.3. Modul: Reanimatologiyaning umumiy masalalari. Shifoxonagacha bo'lgan bosqichda reanimatsiya choralari.

Terminal holatlar. Kattalar va bolalarda yurak –o'pka reanimatsiya o'tkazish bosqichlari. Kattalarda yurak –o'pka reanimatsiyasini o'tkazish algoritmi. Bolalar va gudaklarda yurak –o'pka reanimatsiyasini o'tkazish algoritmi. Hayot uchun xavf tug'diradigan ekstremal holatlar va patologik sindromlar.

Elektr shikastlanishi, cho'kish, asfiksiya, issiq urishi va sovuq urishda reanimatsiya o'tkazish xususiyatlari. To'satdan o'lim. Qon aylanishining to'xtashi. Shifoxonagacha bo'lgan bosqichda nafas yo'llari o'tkazuvchanligini ta'minlash. Qon aylanishining to'xtashida kengaytirilgan reanimatsiya tadbirlarini o'tkazish usullari. Orofaringal va nazal havo o'tkazgichlarni qo'llash usullari. Avtomatik tashqi defibrillyatordan foydalanish. Suniy nafas berishni Ambu nafas olish xaltasidan foydalangan holda amalga oshirish.

2.4. Modul: Shoshilinch va kechiktirib bo'lmaydigan tibbiy yordamni talab qiladigan sindromlar.

Yurak-qon tomir tizimi haqida ma'lumot. Yurak, qon - tomir tizimi kasalliklarini dunyo bo'yicha tarqalishi, kelib chiqish sabablari, asoratlari, asoratlarini oldini olish chora-tadbirlari. Yurak-qon tomir sistemasi kasalliklarining asosiy simptomlari va tekshirish usullari. EKG ni bajarish texnikasi. Yurak ishemik kasalliklari, o'tkir koronar sindromi, miokard infarkti, yurak avtomatizmi, qo'zg'aluvchanlik va o'tkazuvchanlik funksiyalarining buzilishlarida EKG. Ko'krak kafasida og'riq/noxushlik, unda bemorni ahvolini baholash. O'tkir koronar sindromda yordam ko'rsatish. Artimiyalar, turlari va ularda shoshilinch yordam ko'rsatish. O'tkir yurak etishmovchiligi (o'ng qorinchali yurak yetishmovchiligi, chap qorinchali yurak yetishmovchiligi) belgilari. Klinik kechining xususiyatlarini hisobga olgan holda o'tkir yurak etishmovchiligiga yordam berish tamoyillari. Arterial gipertenziya. Gipertonik kriz. Asoratlanmagan va asoratlangan gipertonik krizlarda yordam berish tamoyillari. Qisqa va uzoq muddatli hushni yo'qotish holatlar. Syncopega olib keladigan holatlar, sababi. Koma haqida tushincha. Koma turlari. Komadagi bemorlarning holatini baholash, shoshilinch tez tibbiy yordam ko'rsatish. Komadagi bemorlarni Glazko shkalasi yordamida baholash. Komaning og'irlik darajasiga ko'ra tez tibbiy yordam ko'rsatish. Koma holatidagi bemorlarda hamshiralik parvarishi. Diabetik komalar. Zamonaviy glyukometr, uni

ishlash printsipli. Insulinli pompalar, qo'llanishi, asoratlarni oldini olishdagi ahamiyati. Bosh miya qon-tomirlarining o'tkir yetishmovchiliklari (apoplektik koma) sabablari, belgilari, shifoxonagacha bo'lgan bosqichda tibbiy yordam ko'rsatish xususiyatlari. O'tkir allergozlar. Sabablari, belgilari. Kvinke shishi, eshakyemi, anafilaktik shokda shifoxonagacha bo'lgan bosqichda shoshilinch yordam ko'rsatish. O'tkir nafas etishmovchiligi, sabablari, tasnifi, diagnostik mezonlari, og'irlik darajasi. Yuqori nafas yo'llarining stenoz kasalliklari va yot jismlar tushishi. Kattalar va bolalarda yuqori nafas yo'llarining yot jismlarini olib tashlashning konservativ usullari. Bronx-obstruktiv sindromi. O'pkaning alveolyar qismi shikastlanganda o'tkir nafas etishmovchiligi. Nafas olish a'zolari o'tkir yetishmovchiligi kasalliklarining (bronxit, bronxial astma, pnevmoniya) kelib chiqish sabablari, klinikasi, shoshilinch tibbiy yordam tadbirlari, davolash va parvarish. Talvasa sindromi. Turli toifadagi bemorlar (kattalar, bolalar, homilador ayollar)da talvasa sindromining sabablari. Talvasa sindromida shifoxonagacha bo'lgan bosqichda shoshilinch yordam ko'rsatish taktikasi. Epilepsiya sabablari, asosiy belgilar, epilepsiyaning turlari, asoratlari, shoshilinch tibbiy yordam.

2.5.Modul: Jarrohlik kasalliklarida kechiktirib bo'lmaydigan holatlar.

Qon ketishining tasnifi. Qon ketishining asosiy sabablari. Yuqori va pastki oshqozon-ichak traktidan qon ketishining klinik ko'rinishi. Tashqi va ichki qon ketishida shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish usullari. Qon ketishini vaqtinchalik va uzil-kesil to'xtatish usullari. Qon yo'qotish darajasini baholash. Gemorragik shok: patogenezi, klinik ko'rinishi. Kasalxonagacha bo'lgan jismoniy va instrumental tekshiruvning xususiyatlari. Davolashning asosiy yo'nalishlari. Gemorragik shok bilan og'riqan bemorlarda infuzion-transfuzion terapiyaga qo'yiladigan talablar. Bemorning holatini monitoring qilish va transportirovka xususiyatlari. Tez-tez uchraydigan xatolar. "O'tkir qorin" sindromi to'g'risida tushuncha. Sabablari, klinik belgilari, shoshilinch yordam ko'rsatish. "O'tkir qorin" sindromida bemorlarni tekshirish usullari. O'tkir og'riq bilan yuzaga keladigan kasalliklar: appenditsit, oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yarasi, o'tkir pankreatit, o'tkir ichak tutilishi, siqilgan churralar, o'tkir xoletsistit va jigar sanchigining diagnostik mezonlari. Yordam standartiga muvofiq tekshirish hajmi. O'tkir qorin og'rig'ida differentsial diagnostika va feldsher taktikasi. Klinik vaziyatlarni tahlil qilish. O'tkir bel og'rig'ining sabablari. O'tkir piyelonefrit, o'tkir paranefrit, parafimoz, balanopostit, buyrak sanchigi va o'tkir siydikni tutilib kolishning klinik ko'rinishi. Buyrak sanchig'i, o'tkir piyelonefrit, paranefritning differentsial diagnostikasi. Bolalar va homilador ayollarda buyrak sanchig'ining klinik xususiyatlari va diagnostikasi. Gematuriya: tasnifi, sabablari, klinik ko'rinishi, differentsial diagnostikasi, shoshilinch tibbiy yordam hajmi, kasalxonaga yotqizish uchun ko'rsatmalar. O'tkir siydikni tutilishi: aniqlash, sabablari. O'tkir siydikni tutilishning klinik ko'rinishi. Dogospital bosqichda o'tkir siydikni tutilishning diagnostikasi va differentsial diagnostikasi. Kasalxonaga yotqizish uchun ko'rsatma. Tekshirish xajmi tibbiy yordam kursatish standartiga muvofiq. Shifoxonagacha bo'lgan bosqichda shoshilinch yordam ko'rsatish taktikasi. Quviqni kateterizatsiya qilish uchun ko'rsatmalar. Ayollar va yerkaklarda siydik pufagini yumshoq kateter bilan kateterizatsiya qilish texnikasi.

2.6.Modul: Homiladorlik va tug'ishda, ginekologik kasalliklarda kechiktirib bo'lmaydigan holatlar.

Xomilador ayollarning toksikozi va gestozi : etiologiyasi, patogenezi, tasnifi. Klinik ko'rinishi. Tekshirish xajmi yordam ko'rsatish standartiga muvofiq. Yordam tamoyillari. Kasalxonagacha bo'lgan bosqichda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish uchun ishlatadigan dori moddalarni : qo'llash usullari, dozalarni tanlash. Umumiy xatolar. Kasalxonaga yotqizish uchun ko'rsatmalar. Akusherlik qon ketishi: sabablari, klinik ko'rinishi, differentsial diagnostikasi, davolashning asosiy tamoyillari, kasalxonadan oldingi bosqichda shoshilinch yordam hajmi. Ginekologiyada "o'tkir qorin": sabablari, klinik ko'rinishlari, asoratlari. Tekshiruv doirasi yordam standartiga muvofiq. Shoshilinch yordam tamoyillari. Kasalxonaga yotqizish uchun ko'rsatmalar. Ginekologiyada "o'tkir qorin": sabablari, klinik ko'rinishlari, asoratlari. Tekshiruv doirasi yordam standartiga muvofiq. Shoshilinch yordam tamoyillari. Kasalxonaga yotqizish uchun ko'rsatmalar. Disfunktsional bachadon qon ketishi, jinsiy a'zolarning shikastlanishi va o'smalaridan qon ketishi: klinik ko'rinish va differentsial diagnostika. Tekshiruv doirasi yordam standartiga muvofiq. Yordam tamoyillari. Kasalxonaga yotqizish uchun ko'rsatmalar. Tug'ruq, Tug'ruq davrlari. Homilador ayolning ahvolini baholash. Homila holatini baholash. Tashqi akusherlik tekshiruvi usullari. Tug'ruqning birinchi davrining klinik ko'rinishi. Fiziologik tug'ruqning birinchi davrining kechishini boshqarish. Tug'ruqning ikkinchi davrining klinik ko'rinishi. Fiziologik tug'ruqning ikkinchi davrini boshqarish. Yangi tug'ilgan chaqaloqning holatini baholash. Tug'ruqning uchinchi davrining klinik ko'rinishi. Fiziologik tug'ruqning uchinchi davrini boshqarish. Simulyatsiya xonasida interaktiv maneknlarda tashqi akusherlik tekshiruvi va tug'ruq jarayon ko'nikmalarini mashq qilish.

2.7.Modul: Jarohatlarda kechiktirib bo'lmaydigan holatlar.

Jarohatlar, sinishlar va shikastlanishlar sabablari, turlari. Shifoxonagacha bo'lgan bosqichda organizmda rivojlanadigan travmatik shokning sababi, fazasi va patologik jarayonlar. 1-chi, 2-chi, 3-chi darajali og'irlikdagi travmatik shokning diagnostik mezonlari. Shok jarohati olgan jabrlanganlarga yordam ko'rsatishda "oltin soat" qoidasi. Travmatik shok holatida harakat algoritmi. Travmatik shokni davolashning asosiy qoidalari. Qon ketishini to'xtatish usullari. QAX defitsitini bartaraf yetish. Og'ir travmatik shokda infuzion terapiya tamoyillari. Travmatik shok bilan og'irgan bemorlarda gaz almashinuvi buzilishlarini korreksiya qilish usullari. Qon aylanishi va metabolik buzilishlarda medikamentoz terapiyasi. Tashish va bemorning ahvolini kuzatish xususiyatlari. Transport immobilizatsiyasi usullari. Umumiy xatolar. Bosh-miya jarohatlari, tasnifi. Shifoxonagacha bo'lgan bosqichda turli darajadagi yopiq va ochiq bosh-miya jarohati, diagnostikasi, shifoxonagacha bo'lgan bosqichda yordam ko'rsatish miqdori. Bosh-miya shikastlanishining asoratlari (miya shishi, talvasa sindrom, ongning buzilishi) mavjud bo'lganda medikamentoz terapiyasi tamoyillari. Umurtka pog'onasi shikastlanishi: tasnifi. Zarb darajasiga qarab umurtka pog'onasi shikastlanishining diagnostik mezonlari. Umurtka pog'onasi shikastlangan bemorlarni tekshirish usullari. Shikastlanish darajasiga kura fiksatsiya usullari va transportirovka xususiyatlari. Ko'krak qafasining shikastlanishi, tasnifi. Ochiq va yopiq ko'krak jarohatlarining klinik ko'rinishi. Ko'krak qafasi shikastlangan bemorlarni tekshirish usullari. Ochiq va yopiq ko'krak jarohatlarida feldsherining shoshilinch yordami va taktikasi. Ochiq va yopiq

pnevmotoraksda, qovurg'a sinishida shoshilinch yordam. Plevra va perikardni ponksiya qilish uchun ko'rsatmalar. Qorin bo'shlig'i jarohati, tasnifi. Ochiq va yopiq qorin jarohatlarining shifoxonagacha bo'lgan bosqichda klinik ko'rinish va diagnostika. Qorin bo'shlig'idagi jarohatlarda shoshilinch tibbiy yordam va feldsherining taktikasi. Ko'krak va qorinning kombinatsiyalangan va ko'p sonli jarohatlari. Yetakchi zararni aniqlash tamoyillari. Mushak-skelet tizimining shikastlanish turlari. Shifoxonagacha bo'lgan bosqichda lat yeyshlar, mushak va paylarning chuzilishi, sinish va chiqishlari bilan og'rigan bemorlarni tekshirish usullari. Transport immobilizatsiyasi tamoyillari. Sinishlar tasnifi. Shifoxonagacha bo'lgan bosqichda oyoq-qo'llar, tos suyagi, umrov suyaklarining sinishi diagnostikasi va shoshilinch yordam. Suyak chiqishlari klinik ko'rinishdir. Diagnostika mezonlari, shoshilinch yordam, kasalxonaga yotqizish uchun ko'rsatmalar. Amputatsiya jarohati. Shifoxonagacha bo'lgan bosqichda parvarishlash. Tez yordam feldsher taktikasi. Uzoq muddatli ezilish sindromi: uning rivojlanishiga asoslangan patologik mexanizmlar, klinik ko'rinish, feldsher taktikasi. Yaralarning tasnifi. Kasalxonadan oldingi yaralarni tozalash tamoyillari va xususiyatlari. Tananing turli qismlari: bo'yin, oyoq-qo'llar, yuz jarohatlarida yordam ko'rsatish xususiyatlari. Turli xil transport shinalarini qo'llash, fiksatsiyali bog'lamlarni mahkamlash, tashqi qon ketishni to'xtatish texnikasi va tananing turli qismlariga bog'lamlarni qo'yish qoidalari. Kuyishlar tasnifi. Kuyish shikastlanishining og'irligini baholash. Kuyish darajalari va maydonini aniqlash usullari. Kuyishda shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish. Kuyish shokining patogenezi, klinikasi. Kuyish shokining oldini olish va davolash tamoyillari. Kimyoviy kuyishlar uchun yordam ko'rsatish xususiyatlari. Kuygan bemorlarni tekshirish usullari, kuyish shikastlanishining og'irligini baholash. Kasalxonagacha bo'lgan bosqichda kuygan yaralarni birlamchi davolash usullarini o'zlashtirish. Bemorlarda kuyish shokining oldini olish va davolash.

2.8.Modul: O'tkir zaharlanishda kechiktirib bo'lmaydigan holatlar.

Zaharlanish. Zaharlanish turlari. O'tkir zaharlanish bilan og'rigan bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatish tartibi. O'tkir zaharlanish bilan og'rigan bemorlarni yordam ko'rsatishning umumiy tamoyillari. Zaharlanish bilan og'rigan bemorlarni tekshirish usullari. Anamnez yig'ish xususiyatlari. Hayotiy ko'rsatqichlarni saqlashga qaratilgan tadbirlar ketma-ketligi. Tabiiy intoksikatsiyani faollashtirish usullari. O'tkir zaharlanish uchun antidot terapiyasi tamoyillari. Kimyoviy zararlanish o'chog'i va zonasi haqida tushuncha. Kimyoviy ifloslanish xavfi bo'lgan taqdirda tez yordam va tibbiyot xodimlarining harakatlari. Kuchli ta'sir etuvchi zaxarli moddalar chiqib ketishiga olib kelgan avariya vaqtida jabrlanuvchilarga shoshilinch tibbiy yordamni tashkil etish. O'tkir zaharlanishning sindrom diagnostikasi. Spirtli ichimliklar, ularning surrogatlari, psixotrop dori vositalari, kuydiruvchi ta'sir etuvchi zaharlar, fosfororganik birikmalar, og'ir metall tuzlari, o'simlik va hayvonot manbaali zaharlar bilan kechadigan o'tkir zaharlanish klinikasi, diagnostikasi va davolishi. Gaz holatidagi xlor, ammiak, serovodorod va ugar gazi bilan zaharlanishda klinikasi, diagnostikasi va shoshilinch yordam. Gaz holatidagi xlor, ammiak, serovodorod va is gazi bilan zaharlanishda klinikasi, diagnostikasi va shoshilinch yordam. Psixiatriya va narkologiya yordamini ko'rsatishning huquqiy jihatlari. Ruhiy va narkologik kasalliklarga chalingan bemorlarga tibbiy yordam ko'rsatish tartibi. Alkogolizm, narkomaniya va ruhiy kasalliklardagi shoshilinch holatlar. Psixomotor qo'zg'alish turlari. Psixomotor qo'zg'alish

sabablarining differentsial diagnostikasi. Ong'ning o'zgargan holati."Alkogolizm va narkotik moddalarga qaramlikka chalingan bemorlardagi shoshilinch holatlar. Og'ir darajadagi alkogol mastligi, o'tkir alkogol zaxarlanishi va patologik mastlikning klinik manzarasi.O'tkir alkogol zaxarlanishi va o'tkir alkogol intoksikatsiyasida tez tibbiy yordam feldsheri taktikasi va tibbiy yordam standartlari. Opioidlar iste'moli natijasida yuzaga kelgan o'tkir intoksikatsiya, opiyga qaramlikdagi abstinent sindromi: klinik manzarasi, differentsial diagnostikasi, kasalxonagacha bo'lgan bosqichda shoshilinch yordam.Kasalxonagacha bo'lgan bosqichda shoshilinch tibbiy yordam uchun dorilar: qo'llash usullari, dozalarni tanlash.

2.9.Modul: Bolalarda kechiktirib bo'lmaydigan holatlar.

Bolalarda kechiktirib bo'lmaydigan holatlar. Yosh bolalarning anatomik va fiziologik xususiyatlaridan kelib chiqadigan kasalliklarning o'ziga xos xususiyatlari. Shifoxonagacha bo'lgan bosqichda anamnez yig'ish va bolalarni ob'ektiv tekshirish usullari. Puls tezligi, qon bosimi va nafas olish tezligining yoshga bog'liq normalari. Bolalarda dori-darmonlarni qo'llash usullari,shoshilinch yordam ko'rsatishda ishlatiladigan asosiy dori-darmonlarni dozalash. Infuzion terapiya uchun ko'rsatmalar, infuzion dori turini tanlash, infuzion dorilarning dozalarini aniqlash.Shoshilinch va kechiktirib bo'lmaydigan tibbiy yordamni talab qiladigan sindromlar(gipertermik sindrom, talvasa sindrom, o'tkir nafas yetishmovchiligi, o'tkir yurak-qon tomir yetishmovchiligi va eksikoz). Termoregulyatsiyani buzilishi. Bolalarda isitmaning klinik ko'rinishlari, antipiretik terapiya uchun ko'rsatmalar, pushti va oq isitma uchun shoshilinch yordam hajmi. Umumiy qizib ketishning klinik ko'rinishlari. Haddan tashqari qizib ketganda shoshilinch yordam.O'tkir nafas yetishmovchiligi: sabablari, klinik ko'rinishlari, aspiratsiya sindromida shoshilinch yordam, yuqori nafas yo'llarining stenoz kasalliklari, bronxoobstruktiv sindrom, pnevmoniya. O'tkir yurak-qon tomir yetishmovchiligi: sabablari, klinik shakllari, hushidan ketish, kollaps, shok holatlarida shoshilinch yordam. O'tkir zaharlanish: bolalarda o'tkir zaharlanishning eng ko'p uchraydigan sabablari, zaharning organizmga kirish usullari va zaharning bolaning tanasiga kirishiga qarab shoshilinch yordam. Bolalarda allergik reaksiyalar. Bolalardagi allergik reaksiyalarning asosiy sabablari, turlari va klinik xususiyatlari. Shoshilinch yordam. Kasalxonaga yotqizish uchun ko'rsatmalar.O'tkir ichak infeksiyalari, suvsizlanish turlari (ekzikoz) va ularning klinik ko'rinishlari. I,II,III,IV daraja infeksiyon-toksik shokning klinik ko'rinishlari . Infeksiyon- toksik shok holatida ekssikoz uchun shoshilinch choralar. Og'iz va parenteral regidratatsiya terapiyasi uchun ko'rsatmalar. Regidratatsiya terapiyasi uchun eritmalar, eritmalar hajmi, qabul qilish tezligi, eritmalarning harorati. Meningokokk infeksiyasi. Turli yoshdagi bolalarda meningokokk infeksiyasining xususiyatlari. Meningokokkemiya, miya shishishi, meningokokk infeksiyasida infeksiyon- toksik shok klinik ko'rinishlari.Difteriya. Difteriyaning turli shakllarining klinik ko'rinishlari. Og'iz faringeal difteriyaning toksik va gipertoksik shakllarining diagnostik mezonlari. Soxta bug'ma (stenozlovchi laringit)da shoshilinch yordam. Yuqumli teri toshmalarning (ekzantem) differentsial diagnostikasi. Bolalarda o'tkir jarrohlik va o'tkir urologik kasalliklar xususiyatlari.Bolalarda miya shikastlanishi. Kompression umurtqa pog'onasining sinishi Oyoq-qul suyagining shikastlanishi: xususiyatlari, klinikasi, diagnostikasi, shoshilinch.

yordam. Bolalarda kuyishlar. Kuyish kasalligining xususiyatlari. Kuyish shoki. Bolalarda qizilo'ngachning kimyoviy kuyishi. Shoshilinch yordam.

4. DASTURNI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILY-PEDAGOGIK TA'MINOTI

4.1. O'quv bazalari:

Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Shifokorlar ko'chasi-2, 14-uy, davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

Amaliyot bazasi: davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

4.2. Mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jixozlar ruyxati:

Modul buyicha dars olib borish uchun nazariy, amaliy va seminar darslar o'tiladigan o'quv auditoriyalari. Multimediali jamlanma: slaydlar to'plami bo'lgan rrt ko'rinishli ma'ruzalar, SD diskda ko'rgazma materiallar, ekran, videofilmlar. Klinik amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash trening o'quv xonasi mulyaj, fantom, jihozlar, tarqatma materiallar, nazorat savollarining elektron ko'rinishi, vaziyatli masalalar, test savollari. Mavzular bo'yicha turli jadvallar, tasviriy ko'rgazma va qo'llanmalar.

4.3. ADABIYOTLAR RUYXATI:

4.3.1. Qonunchilik va me'yoriy-huquqiy xujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi "Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ- 4310-son qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va yanada uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4666-sonli qarori.

3. "Yuqumli bo'lmagan kasalliklarning profilaktikasini, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori PQ 40-63 18.12.2018 yil.

4. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish buyicha me'yoriy xujjatlarni yanada takomillashtirish to'g'risidagi" buyrug'i.

5. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining me'yoriy hujjatlari.

4.3.2 Tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. V.E. Avakov O.V. Churilova A.M. Sharipov "Rukovodstvo po okazaniyu pervoy neotlojnoy dovrachebnoy pomoshchi." 2010g.

2. Yu. Allayorov Yu. Tojiboyev "Favkulodda vaziyatlarda tez tibbiy yordam asoslari" Tashkent-2017 y.

3. D.M. Sabirov, A.Z. Gazizov "Birinchi tibbiy yordam" Toshkent-2017y.

4. Lychyov V.G., Karmanov V.K. «Pervichnaya dovrachebnaya meditsinskaya pomoshch.» 2015g.

5. S.V. Dimichev "Pervaya pomoshch pri travmax i zabolevaniyax" Moskva-2011g.

6. V.P. Mitrofanenko, I.V. Alabin "Osnovy potologii" Moskva-2011god..

7. M.S. Krivenya "Osnovy anesteziologii i reanimatologii" 2009g.

8. A.A. Koshelyov "Meditsina katastrof" Sankt-Peterburg-2006g.

9. Allayarov Ya.N. "Akusherlik" Toshkent 2007y.
10. Ayupova F.M., Jabbarova Yu.K. "Ginekologiya" Toshkent. 2006y.
11. Bodyajina V.I. Semenchenko. "Akusherlik." M. 2004y.
12. Krikun A. S. Pochechnokamennaya bolezнь. Kiyev, Naukova Dumka 2008y.
13. Lopatkin N.A. Rukovodstvo po urologii. Tom 2 M.: 1998g.
14. Pushkarь.D.Yu. Urologiya. Moskva. «Geotar-Media» 2013y.
15. F.O. Haydarov, Sh.X. Ermatov "Abu Ali ibn Sino" "Ichki kasalliklar."
16. S.N. Muradov "Xirurgik kasalliklar". 1989y.

4.3.3. Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Amerika yurak assotsiatsiyasi (American Heart Association) birinchi yordam bo'yicha qo'llanma, jumladan "Yurakni qayta jonlantirish (CPR) bo'yicha tavsiyalar. 2020 yil .
2. K.L. Shagulyamova. "Pediatriya". Toshkent, «Ilm ziyo»-2015 god.
3. M.F. Ziyaeva, Z.O. Rizayeva. "Bolalarda hamshiralik parvarishi" "Fan va texnologiya" 2012 y. Toshkent.
4. V. N. Turaqulov, F. A. Qurbonov, Q. R. Tongotarova "Anesteziologiya va intensiv terapiya hamshiralik parvarishi." O'quv –qullanma. 2017 yil.
5. "Onalar hamda bolalarda havf omillarini aniklash bo'yicha yuriqnomalar va beriladigan tavsiyalar" 2020 y. (YuNISEF)
6. "Yuqumli kasalliklar hamshiralik ishi" – 2016 y. (YuNISEF)

4.3.4. Elektron ta'lim resurslari:

www.edu.uz

www.minzdrav.uz

<http://www.medpoisk.ru/>

<http://www.rusmedserv.com/>

www.medi.ru

www.medlinks.ru

www.medscape.com

www.medland.ru

www.med-lib.ru

www.medsan.ru

www.ksmed.ru/pat/gynecology

5. YAKUNIY ATTESTATSIYA

5.1. Yakuniy attestatsiyaga qo'yiladigan talablar, o'tkazish shakli va baholash mezonlari.

Yakuniy attestatsiya O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash Vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyrug'i 3-ilovasidagi «Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta'lim muassasalarida tinglovchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini baholash to'g'risidagi Nizom» ga asosan o'tkaziladi.

